

# **LINGVO MADANIY ATAMALAR NING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA NAZARIY QARASHLAR**

**A`zamova Dilfuza Shofiyevna**

O'qituvchi. Fakultetlararo chet tillari kafedrasи.

Termiz davlat universitetи.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo bo'ylab olimlarning lingvo madaniyatshunoslikka doir qarashlari, nazariyalari keng o'r ganilgan. Lingvomadaniyatshunoslik sohasi bir tomondan tildagi insondagi madaniy omilga, ikkinchi tomondan insondagi til omiliga yo'naltirilganili o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** Lingvomadaniyatshunoslik, fenomen, antropologik paradigm, "borliqni verbalizatsiyalash".

## **ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ РАССМОТРЕНИЯ ЛИНГВИСКОКУЛЬТУРНЫХ ТЕРМИНОВ**

**Аъзамова Дилфуза Шофиевна**

Преподаватель междуфакультетной кафедры иностранных языков  
Термезского государственного университета

**Аннотация:** В данной статье широко изучены взгляды и теории ученых не только Узбекистана, но и всего мира по лингвокультурологии. Было изучено, что область лингвистики ориентирована на культурный фактор человека, с одной стороны, и языковой фактор человека, с другой стороны.

**Ключевые слова:** лингвистика, феномен, антропологическая парадигма, «вербализация существования».

## **LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS AND THEORETICAL CONSIDERATIONS OF LINGUISTIC-CULTURAL TERMS**

**A`zamova Dilfuza Shofievna**

Lecturer. Department of Interfaculty foreign languages.  
Termez State University.

**Abstract:** In this article, the views and theories of scientists not only from Uzbekistan, but also from all over the world on linguistic and cultural studies have been extensively studied. It has been studied that the field of linguistics is focused

on the cultural factor in the human being on the one hand, and on the linguistic factor in the human being on the other hand.

**Key words:** Linguistics, phenomenon, anthropological paradigm, "verbalization of existence".

**Kirish.** Lingvo madaniyatshunoslik til va madaniyat munosabatini aks ettiruvchi fan yo‘nalishi bo‘lib, Ilmiy bilim turli sohalarining bir-biriga o‘tish an’analari XX asr fanining belgilovchi asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Gumanitar fanlar sohasida madaniyatshunoslik bo‘yicha tadqiqotlaming, ya’ni inson faoliyatining barcha o‘ziga xos tomonlarini hamda uning oldindan belgilab qo‘yilgan natijalarini o ‘z ichiga oladigan madaniyat fenomenini tahlil qilishga intilishning ifodasi bo‘ladi.

Hozirgi kunda lingvomadaniyatshunoslik sohasida bajarilayotgan tadqiqotlar asosan “til va madaniyat mosligini parallel tarzda o‘rganish va tasvirlashga bag‘ishlangan”[1, 25]. Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslik tildagi insondagi madaniy omilga, ikkinchi tomondan insondagi til omiliga yo‘naltirilgan. Lingvomadaniyatshunoslik - inson haqidagi fanning bir qismi bo‘lib, uning tortish markazi esa madaniyat fenomenidir [1, 222]. Til va madaniyatni xarakterlovchi belgilaming o‘xshashligi ularning munosabatini yagona metodologik asosda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu umumiy belgilar quyidagilardir:

1. Madaniyat va til — bu insonning va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllaridanbirdir
2. Til va madaniyat o‘zaro muloqotda (dialogda) so’zlashuv nutqida mavjuddir, chunki nutq sub’yekti va uni tinglovchi — bu hamma vaqt madaniyat sub’yektlari bo‘lib hisoblanadi
3. Ikkala fenomen individual yoki umumiy mavjudlik shakllariga ega, madaniyat va tilning sub’yekti – hamma vaqt individ yoki sotsium, shaxs yoki jamiyatdir[1, 71].

Ayni paytda inson va jamiyatning ikkita eng muhim o‘ziga xos xususiyati o‘rtasida muhim farqlar mavjud: 1. Kommunikatsiyaning vositasi sifatida bo‘lgan

tilda ommaviy adresatga yo‘l-yo‘riqlar ustun turadi, madaniyatda esa saralanganlik (elitamost) qadrlanadi. 2. Belgi tizimi bo‘laturib, madaniyat, tildan farqli ravishda o‘zicha tashkil topa olmaydi. 3. Til va madaniyat — turlicha semiotik tizimlardir. Bunday qiyoslash tadqiqotchilarni madaniyat tilga izomorf emas, gomomorfdir (tarkiban o‘xhashdir) degan xulosaga olib keladi [2, 39].

Madaniy bilimlar — shu tilda so‘zlovchining madaniy-til kompetentsiyasining bir qismidir. "Madaniy bilimlar" bu, bir nechta madaniyatlar va ularning ibratli ifodalarini o‘z ichiga olgan so‘zlar majmui hisoblanadi. Bu ifodalar ko‘p joylashgan turli madaniy va adabiyotlarni o‘rganish va tushunish uchun foydalaniladi. Madaniy bilimlar, insoniy tajribani, ularning davrning tadbirlariga, g‘oyalariga, tafsilotlariga va o‘zaro munosabatlariga oid muhim ma‘lumotlarni o‘rganish va tushunishda yordam beradi. Bu so‘zlar kompetentsiyasi madaniy tillar va madaniyotlardan tushuncha, til, adabiyot, falsafa, ijtimoiy fanlar, san'at va madaniy yozuvlarni o‘qish, shuningdek madaniy aloqalar va kommunikatsiyalar bo‘yicha tushunchalar, nazariy bilimlarni kiritish va o‘rganishga oid tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetentsiya insoniy munosabatlar, tarixiy ma‘lumotlar, ijtimoiy normativlar va boshqa madaniy tushunchalar bo‘yicha tushuncha bilimlarni oshiradi. Madaniy kompetensiya til kompetentsiyasi bilan mos kelmaydi: "til kompetentsiyasining madaniy kompetensiyaga o‘zgarishi madaniy kod kategoriyalarda til belgilari interpretatsiyasiga asoslangan. Shu turdagi interpretatsiyaga egalik madaniy-til kompetensiyasidir" [1, 227]. Olamning ikkita modeli — konseptual va til modellarining o‘zaro bog‘liqligini qayd qilib, Yu.S.Stepanov ulami o‘zaro chalkashtirib qo‘yishdan ogohlantiradi: Til modelini madaniyatning predmeti sohasiga, va aksincha, madaniyat modelini tilning predmeti sohasiga ko‘chirib bo‘lmaydi" [3, 15-38]. Yu.S.Stepanov ham lingvistik nazariya uchun, ham madaniyat nazariyasi uchun qo‘llaniladigan alohida, ancha umumiyl tushunchalar apparatini ishlab chiqishga da’vat qildi. Mana shu lingvomadaniyatshunoslikning terminologik, tushuncha asosini (fundamentini) tashkil etadi. Ba’zi olimlaming

fikricha, lingvomadaniyatshunoslik XX asming oxirgi choragida, tilshunoslikdagi antropologik paradigma mahsuli sifatida paydo bo'ldi. Unga birinchi bo'lib XIX asrda V. fon Gumboldt, o'zining "Inson tillarining tuzilish farqlari va uning insoniyatning ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri" nomli kitobida asos solib, til xarakteri va xalq xarakterining bir-biriga bog'liqligini ifodalab bergan. "Turli tillar o'z mohiyatiga, ong va sezgiga ta'siriga ko'ra haqiqatan ham dunyoni turlicha his etishdir" va "tilning o'ziga bo'lgan xosligi millatning mohiyatiga ta'sir etadi, shuning uchun ham tilni sinchiklab o'rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'laydigan hamma narsani o'z ichiga olishi kerak" [4, 370-377], degan fikr keng tarqaldi. Bunday yondashuvning yangiligi shundan iborat ediki, turli til shakllari ortida olim borliqni tafakkur qilish va anglash uslublaridagi farqlami ko'rdi va tilda madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari mujassamlanadi, degan xulosa chiqardi. V.Gumboldtning g'oyalari XIX-XX asrlarda neogumboldtchilik doirasida rivojlandi. Rossiyada XIX asrda A.A. Potebnya Gumboldtning ilmiy merosini "til faoliyat sifatida" [5,38] degan g'oyasini chuqurlashtirib, tushuntirib berdi. Evropalik neogumboldtchilik vakillari — L. Veysgerber, X. Glints, X. Xoltslar XX asming o'rtalarida tafakkurning tarkibini va fikrning tuzishini tilning o'ziga xos tuzilishlariga bog'liqligi haqidagi masalani tadqiq qildilar. Neogumboldtchilarning tadqiqotlari tilning "mazmuniy" tomoniga qiziqishni ajratib turadi: "ular turli tillarning semantik sohalarini tahlil qilib, ular o'rtasidagi o'xshashhk va farq qiluvchi jihatlarini aniqladilar. L. Veysgerber "borliqni verbalizatsiyalash" tushunchasini kiritib, uni "borliqni til orqali ishg'ol qilish jarayoni va uni bilish ob'yekti" deb ta'rifladi va shuningdek u tilning ma'nodor jihatlarini qayd etishi va tilni "ta'sir etuvchi kuch" sifatida tasavvur qilishi kerak bo'lgan "yangi grammatika" tuzilishi zarurligi haqidagi tezisni ilgari surdi. Shimoliy amerikalik indeets (xindu)larning tillarini tadqiq qilish natijasida olgan materiallari asosida ular til kategoriylarining ongga ta'siri mavjud ekanligi haqidagi xulosaga keldilar. Til nisbiyligi faraziga asosan, turli tillarda turlicha

kategoriyalarning mavjudligi shundan dalolat beradiki, bu tillarning sohiblari o'zlarini o'rabi turgan olamni turlicha tushunadilar.

**Xulosa.** Shunday qilib, lingvokulturema tarkibida madaniy-tushunchaga oid komponent so'zning tildan tashqari mazmuni va keyingi (tushunchaga oid-predmetga oid) ma'nosi sifatida albatta ishtirok etadi. Til va madaniyatni xarakterlovchi belgilaming o'xshashligi ularning munosabatini yagona metodologik asosda ko'rib chiqish imkonini beradi. Lingvistik adabiyotda til va madaniyatning quyidagi umumiylar belgilarining mavjudligi e'tirof etiladi: 1. Til va madaniyat uchun um umiy bo 'lgan jihat bu normativlikdir. 2. Tarixiylik esa til va madaniyatning eng mohiyatli xususiyatlaridan biridir. 3. Madaniyat xalqning o'ziga xos tarixiy xotirasidir, chunki til o'zining kumulyativ (to'plovchi) vazifasiga ko'ra kollektiv xotirani saqlaydi va boyitadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры. Фразеология в контексте культуры. М.: Языки русской культуры, 1999.
2. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. — М.: Наследие, 1997.
3. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. М.: 1997. 160
4. Гумбольдт Б. О различии строения человеческих языков и его влияние на духовное развитие человеческого рода. Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. Составител В.А.Звегинцев. М.: 1956.
5. Потебня АА Мысл и язык. Слово и миф. М.: Правда, 1989.
6. Аъзамова, Д. Ш. (2020). Самостоятельная работа как высшая форма учебной деятельности. *Вопросы педагогики*, (5-1), 41-45.
7. Аъзамова, Д. Ш. (2022). ПОНЯТИЕ “ЛАКУНА” В ЛИНГВИСТИКЕ. *Conferencea*, 78-80.
8. Karshiyeva, B. (2023). Solving complex communicative-knowledge tasks based on integrated bilingual education in English. *Interpretation and Researches*,
9. Karshieva Bogdagul Faxriddinovna, . (2023). Theoretical views of teaching English to engineering students. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(12), 113–116.

10. Karshieva B.F. (2023). A component of professional communicative competence in English is professional engineering knowledge. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 257–261. Retrieved from
11. Karshieva B.F.(2023). The current state of teaching English to technical students, methodological approaches.“Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya. Vol. 4 No. № 4.1 (2023). 135-138.